

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI  
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI TAYYORLASH BO'YICHA)**  
130/22-LS-408- sonli

*Samargand sh.*

“**15**” noyabr 2022 yil

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 2022 yil 8-avgustdagi 47-sonli buyruq asosida ish yurituvchi direktor o'rinnbosari v.b K.Ximmatkulov bir tomondan va “SAMARQAND YO'LLOYIHALASH” mas'uliyati cheklangan jamiyatni nomidan Ustav asosida ish yurituvchi I.Tog'ayev ikkinchi tomondan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 11.11.2022 yildagi 22110012177974 -sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

### **1.SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Samarqand viloyati Jomboy tumani Qangli” MFYdag'i ichki yo'lini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish belgilangan norma va qoidalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

### **2.SHARTNOMA BAHOSI**

2.1. Ishlarni amalgalashirish shartnoma bahosi QQS bilan 8 779 000 (Sakkiz million etti yuz yetmish to'qqiz ming) so'mni tashkil qiladi.

### **3.TO'LOV TARTIBI**

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 (o'ttz) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolniib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 10 (o'n) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovini amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

### **4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalinish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardi.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalinish, «Bajaruvchi»ning roziligidisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlar o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddatini ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

### **5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1. Loyerha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararini to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan SHNQ va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlarni xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritsila, barcha ko'paygan to'lovlarini o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarini amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

### **6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi hamda elektron variantlari bilan «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgancha holda ikki tomonlarga dalolatnomalar tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilaganiga taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

## 7. KONFIDENTIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidential hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 8. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'l maydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilihini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarqa ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilob boshqa xatt-i-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lган tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

## 10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limga belgilangan tartibda to'lovnini amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jaib qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariiga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiyematining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar qiyematining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachililik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida uch nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

## TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

### "BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati"

#### DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabihev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteka bank"

L/s: 301821860184017045204118026

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED:70220

Direktor o'rinosi y. b.

K.Ximmatkulov



Mazkur shartnoma 29.08.1998 yilda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma mag'firatini qonunohililik jalablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist C. Jumayev

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020013000100001010  
Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi  
Manzili: Samarcand shaxari Kuksaroy maydoni №1  
STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160  
Tel 2335853, 231-11-52

### "BAJARUVCHI"

Nomi: "SAMARQAND YO'LLOYIHALASH" MCHJ

Manzili: Samarqand sh. Narpay k 22-uy

Bank nomi: Milliy bank Registon f-li

X/R: 2020 8000 6003 0858 5001


MFO: 01112

STIR: 201 329 144

OKNX: 71110

Tel: 90 467 67 65

Direktor: I.Tog'ayev



Yurist J. Jumayev